

---

## MEHR-OQIBAT, XAYR-SAXOVAT KO'RSATISH XALQIMIZGA XOS FAZILATDIR



### RAMAZON-MEHR VA SAXOVAT OYI!

Muhtojlarga mehr-oqibat, xayr-saxovat ko'rsatish xalqimizga xos fazilatdir. Bunday ezgu tushunchalar ayniqsa, muborak mohi ramazonda yanada keng quloqch yoymoqda. Qo'shtepa tumanida ham muborak oy munosabati bilan yoshi ulug' keksalar, imkoniyati cheklangan, mehrga muhtoj kishilar holidan xabar olinib, ular uchun iftorlik dasturxonini tuzilmoqda.



Qo'shtepa tumani hokimi o'rinbosari - oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Maryamxon Yuldasheva hamda "Oqila ayollar harakati" a'zolari mahallalarda bo'lishib, ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar xolidan xabar olishmoqda. Ular Borot mahalla fuqarolar yig'inida bo'lib, boquvchisini yo'qotgan, ikkinchi guruh nogironi Shaxodatxon Paramonova hamda yakka yolg'iz ayol Ma'muraxon Xotamovalar bilan suhbat o'tkazishdi.

Suhbat asnosida ayollarning muammolari o'rganilib, amaliy yordam berish choralari belgilandi. Shuningdek, ularga Ramazon tuhfasini sifatida oziq-ovqat mahsulotlari hamda sovg'a-salomlar ulashildi.

### [Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2023-04-05 14:39:11